



BOSHLANG‘ICH TA’LIM UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANTIRISH KURSLARI JARAYONIDA DARSLAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH

IMKONIYATLARI

Atayeva Baxrinisa Abduvaxidovna

*Sirdaryo viloyati pedagogik mahorat markazi Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus
ta’lim metodikalari kafedrası mudiri v.v.b +998972456806*

Annotatsiya. Mazkur maqolada boshlang‘ich ta’lim uzluksiz rivojlanish kurslari jarayonida dars samaradorligini oshirish imkoniyatlari: trening asosida darslar tashkil etish, AKTdan foydalanish, didaktik materiallardan foydalanish, o‘zaro tajriba almashish haqida fikrlar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich ta’lim, trening, AKT, didaktik materiallar, o‘zaro tajriba almashish.

Аннотация. В статье описываются возможности повышения эффективности уроков в рамках курсов непрерывного развития начального образования: организация уроков на основе обучения, использование ИКТ, применение дидактических материалов, обмен опытом.

Ключевые слова: начальное образование, обучение, ИКТ, дидактические материалы, обмен опытом.

Abstract. This article describes the possibilities of improving the effectiveness of lessons in the course of continuous development courses of primary education: organizing lessons based on training, using ICT, using didactic materials, and sharing experiences.

Keywords: primary education, training, ICT, didactic materials, exchange of mutual experience.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 21-iyun 2024-yil PQ – 231-son qaroriga ko‘ra



o'qituvchi faoliyati uzluksiz ravishda oshirib borilishi, ya'ni pedagog kadrlarni kasb bilimlari va ko'nikmalarini chuqurlashtirish hamda yangilashni ta'minlash lozim bo'ladi.

O'qituvchi faoliyatini ijodiy ravishda takomillashtirib borish uni malaka oshirish kurslari jarayonida faolligini oshirish muhim masalalardan biridir.

Malaka oshirish kurslari jarayonini samarali tashkil etishga yo'naltirilgan quyidagi omillarni sanab o'tishimiz mumkin:

- Dars mashg'ulotlarini trening asosida tashkil etish;
- Mashg'ulot jarayonida AKT imkoniyatlaridan to'liq foydalanish;
- Dars mobaynida didaktik materiallar namunalaridan (ko'rgazmalilik, ta'limiy o'yinlar, turli yo'nalishdagi didaktik vositalar) unumli foydalanish;
- O'zaro tajriba almashish imkoniyatini berish maqsadida ijodkor, ilg'or ish tajribali o'qituvchilarni mashg'ulotlarga taklif etish.

Mashg'ulot jarayonini samarali tashkil etishda bugungi kunda trening asosida tashkil etish – nazariy ma'lumotni amaliy mashqlar orqali o'zlashtirishni ta'minlaydi, o'qitishni emas, ta'lim oluvchining mustaqil va faol o'rganishini nazarda tutadi, hamkorlikda ishlashga o'rgatadi.

Mashg'ulot jarayonida AKT imkoniyatlaridan dars taqdimotini infografika asosida yaratish o'tiladigan dars jarayonini mujassamlashtirgan holda tinglovchilarni savollar ustida ishlash, muammoli vaziyatlarni muhokama qilish, mavzu asosida amaliy, ijodiy ishlash yo'nalishlarini yuzaga keltirgan holdagi dars taqdimotlari yaratish lozim.

Interaktiv doska asosida darslar tashkil etishda tinglovchilarga berilgan mavzu asosida yozish, chizish, amaliy ish jarayonini sinab ko'rish imkoniyatlari amaliy tarzda tashkil etish ham dars samaradorligi oshirishning muhim omilidir. Multimediyalarni fan va mavzular yo'nalishidan kelib chiqqan holda tinglovchilar e'tiboriga havola qilish, ulardan foydalanish yo'llarini ko'rsatib yo'nalishlar berish orqali ham dars samaradorligiga erishimiz mumkin. Dars mobaynida mavzuga mos didaktik materiallar namunalaridan (ko'rgazmalilik, ta'limiy o'yinlar, turli yo'nalishdagi didaktik vositalar) unumli foydalanish orqali tinglovchilarda ijodiy ishlashga yo'naltirish imkoniyatini beramiz.



O‘zaro tajriba almashish imkoniyatini berish maqsadida ijodkor, ilg‘or ish tajribali o‘qituvchilarni mashg‘ulotlarga taklif etish orqali ham malaka oshirish jarayonini samarali bo‘lishining muhim omillaridir

Mashg‘ulotdan tashqari jarayonda esa:

- Tinglovchilar faoliyatini yangiliklar bilan boyitishga yo‘naltirilgan mavzularda seminar-treninglar o‘tkazish;
- Ijodkor, innovator o‘qituvchilar bilan amaliy seminarlar tashkil etish;
- Ilg‘or tajribali o‘qituvchilar bilan uchrashuv va davra suhbatlari o‘tkazish;
- “Ustoz-shogird” yo‘nalishini kurs jarayonidagi tatbig‘i asosida tajriba almashish;
- Kutubxonada metodik adabiyotlar bilan ishlash.

Bular bilan bir qatorda har bir kurs jarayonida har kurs yakunida tinglovchilarning ma‘naviy-ma‘rifiy dunyoqarashlarini kengaytirish va ish faoliyatlarida qo‘llash imkonini beruvchi metodik tadbirlar jadval asosida kompyuter texnologiyasi asosida tashkil etib borilmoqda:

“Mening pedagogik falsafam” “Metodik g‘oyalar festivali”, “Men yaratgan mo‘jiza”, “Orginal ko‘rgazmali qurollar”, “Ochiq darslar festivali” tadbirlari asosida o‘qituvchi birinchidan o‘zining kasb mahoratini o‘zgalarga namoyish etish orqali, qolganlarning ijodiy ish va yangiliklaridan o‘zining kelgusi ijodiy-kasbiy mahoratini oshirish imkonini olmoqda.

Bu yo‘nalishlar asosida o‘qituvchi metodik adabiyotlar ustida ishlash bilan avvalo dunyoqarashi kengayadi, o‘zaro tajriba almashish imkoniyatlari kengayadi, ijodiy yondashuv rivojlanadi, o‘z ilmiy-metodik ishlarini namoyish etish va zaruriy yo‘nalishlarini belgilash, o‘z pedagogik mahoratini yuzaga chiqarish, yangiliklarni dars jarayonida tatbiq etish yo‘llarini o‘rganish orqali kasbiy mahoratni shakllantirish imkoniyatlari vujudga kelmoqda.



Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 21-iyun 2024-yil PQ – 231-son qarori.
2. Azizxojayeva N.N., Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. O‘quv qo‘llanma. –T. Adabiyot jamgarmasi. 2006.
3. “Boshlang‘ich sinflarda o‘qitishning zamonaviy metodikasi” dasturi doirasida trening ishtirokchisi qo‘llanmasi. – Toshkent, 2023.

